

## **Muborak Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2026-yildagi PQ-194-son**

Qarorga ko'ra, 2026-yil 27-may Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Bunda Qurbon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Qurbon hayiti bayrami munosabati bilan quyidagi kunlar dam olinadi:

27-may (chorshanba) – Qurbon hayiti bayrami kuni – barcha uchun dam olish kuni;

28-may (payshanba) va 29-may (juma) - ish haftasining turidan qat'iy nazar barcha xodimlar uchun qo'shimcha dam olish kunlari;

30-may (shanba) – 6 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun qo'shimcha dam olish kuni, 5 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish kuni;

31-may (yakshanba) - dam olish kuni.